ShaffofQurilish

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"NPO GRADE EXPERTISE SERVIS" MCHJ

Holati: Ijobiy
Direktor: Shadiyev Baxram Ubaydullayevich
Sana: 04-08-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

253598 - SONLI

Obyekt nomi: Mavjud ob’ektni yuridik xujjatga ega qismida yondosh xududdagi uy ko‘rinish panaligini ta’minlash sharti bilan, o‘z xududida kompressor binosi qurish	
Buyurtmachi:	"UZCARLSBERG" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT SHAKLIDAGI XORIJIY KORXONA
Bosh loyihachi:	"EAST DREAM ENGINEERING" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	TANLOV ASOSIDA
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	084181

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Bosh boshqarmasi tomonidan Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda o‘z hududida qo‘shimcha bino va inshootlarni qurish uchun 18.04.2025 yilda berilgan 181566276 sonli ruxsatnoma.

1.2. Ko‘chmas mulk ob’ektiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidaga 10:04:44:01:03:0008 sonli Davlat Reestridan ko‘chirma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Toshkent shahar Bosh boshqarmasi tomonidan Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda o‘z hududida qo‘shimcha bino va inshootlarni qurish uchun 18.04.2025 yilda berilgan 181566276 sonli ruxsatnoma.

2.2. Ko‘chmas mulk ob’ektiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidaga 10:04:44:01:03:0008 sonli Davlat Reestridan ko‘chirma.

2.3. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 28.04.2025 yilda tasdiqlangan 1726-1726290-222727 sonli Arxitektura Rejalashtirish topshirig‘i.

2.4. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 21.07.2025 yilda berilgan 200792249 –sonli xulosasi.

2.5. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, davlat ekologik ekspertizasi markazi, Toshkent shahar filiali tomonidan 04.06.2025 yilda berilgan 01-02/01-4527 sonli Davlat ekologik ekspertizasining xulosasi.

2.6. “GEODELTA” MChJ tomonidan 2025 yilda bajarilgan Toshkent shahar, Yashnaobod tumani, Amir-Temur MFY, Temirchi ko‘chasi, 21-uyda joylashgan loyihalash ob’ekti bo‘yicha muhandislik – geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosasi.

2.7. Buyurtmachi tomonidan 2024 yilda tasdiqlangan loyiha topshiriq.

2.8. Ob’ekt bosh rejasi, ob’ektning arxitektura va qurilish yechimlari, yong‘in xavfsizligi qismlari, muxandislik tarmoqlari qismi, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqsiz harakatlanishi yechimlari, ob’ektning issiqlik xisobi, energetik pasporti, joriy narxlardagi qiymat xisobi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino					
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**
Yordamchi bino	KOMPRESSOR	1	1190	1190	4802
Jami:			**1190**	**1190**	**4802**

3.1. Loyiha ma’lumotlari.

Ob’ektni xavf xatar toifasi – II. *(12.5. Ichimliklar ishlab chiqarish va qadoqlash korxonalari (pivo, kvas, mors ishlab chiqarish)).*

Klimatik hudud - IV

Hududning zilzilaviyligi - 8 balli

Qor tushish yuklamasi – 0,50 kPa

Shamol yo‘nalishi yuklamasi – 0,38 kPa

Yillik o‘rtacha temperatura 25.1°S

Absolyut minimal temperatura-20°S

Absolyut maksimal temperatura-45°S

Tuproqning cho‘kuvchanlik bo‘yicha tipi - I

Yer osti suvlari sathi yer usti sathidan – 3,7-3,9 m chuqurlikda joylashgan

Yerning muzlash qatlami - 0,7 m.

Yong‘inga chidamlilik - II.

Funksional yong‘in xavfi buyicha bino tasnifi – S 1.

Yong‘inga xavflilik darajasining funksional toifasi – F 5.1

3.2. Ob’ektlarning arxitektura va konstruktiv yechimlari.

KORIDOR.

Ob’ektning konstruktiv yechimlari.

Loyixalaniyotgan inshoot bir qavatdan iborat. Loyixalaniyotgan inshoot o‘qlar bo‘ylab umumiy o‘lchamlari (A-I) 19,03 metr, (1-14) o‘qlar bo‘yicha 40,81 metrga teng shaklga ega.

Binoning asosi monolit ko‘ndalang chiziqli lentasimon, ega etib qurilgan va oddiy sement asosidagi V25 sinfidagi beton Ø16 va Ø6 o‘lchamli armaturali setkalar orqali tayyorlangan.

Binoning ustun va to‘sinlari 125x4 mm, 100x4 mm, 80x3 mm, 80x60x3 mm, 60x3 mm, №14 o‘lchamli shveller va 63x6 mm, 50x5 mm ugolniklar orqali tayyorlanishi nazarda tutilgan. Binoning tashqi devorlari va tom qismi sendvich panellar bilan tayyorlanishi nazarda tutilgan. Tashqi va ichki devorlarda eshik va oynalar uchun oldindan tayyorlangan proyomlar uchun kashaklar (peremichka) ni 90x6 mm, 63x6mm o‘lchamdagi ugolniklar orqali tayyorlanishi nazarda tutilgan.

Ob’ektning arxitektura yechimlari.

Binoni tashqi fasadlarni bezashda yuqori sifatli materiallardan foydalanilgan. Ichki va tashqi qoplamalar bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar tegishli loyiha chizmalarida berilgan. Tashqi va ichki bezatishda zamonaviy darajadagi sanitariya-gigienik, yong‘inga qarshi, texnik va estetik talablarga javob beradigan tabiiy va sun’iy ekologik toza materiallardan foydalanilgan. Binoning tashqi oynalariga issiqliq xisobidan kelib chiqib zamonaviy issiq va sovuqdan saqlovchi plastik romlar qo‘yilishi rejalashtirilgan. Tashqi eshiklarga zamonaviy issiq va sovuq

o‘tkazmaydigan davotchikli temir eshiklar quyish rejalashtirishgan.

Loyixalanayotgan bino koridordan iborat.

KOMPRESSOR BINOSI.

Ob’ektning konstruktiv yechimlari.

Loyihalashtirilgan bino bir qavatdan iborat. Loyixalanayotgan bino o‘qlar bo‘ylab umumiy o‘lchamlari (A-B) 11,5 metr, (1-7) o‘qlar bo‘yicha 36 metrga teng shaklga ega. Binoning umumiy balandligi 11,6 metrni tashkil etadi.

Binoning asosi monolit ko‘ndalang alohida-alohida turuvchi, 1500x1500x1550 mm o‘lchamlarga ega etib rejalashtirilgan va oddiy sement asosidagi V20 sinfidagi beton Ø12, Ø10 va Ø8 o‘lchamli armaturali setkalar orqali tayyorlanishi nazarda tutilgan. Binoning fundament qismi 2 qavat gidroizolyatsiya qilinishi rejalashtirilgan.

Binoning ustun va to‘sinlari 35B2, 30Sh1, 20B2 dvuxtavr, №16, №14, №10 markali shveller, 150x150x4 mm, 120x80x3 mm, 100x100x4 mm, 80x80x3 mm o‘lchamdagi metall quvurlar va 100x63x8 mm, 100x7 mm, 63x5 mm, 50x5 mm o‘lchamdagi ugolniklar orqali tayyorlanishi nazarda tutilgan. Binoning tashqi va ichki devorlari sendvich panellar orqali tayyorlanishi nazarda tutilgan. Tashqi va ichki devorlarda eshik va oynalar uchun oldindan tayyorlangan proyomlar uchun kashaklar (peremichka) ni №10 o‘lchamdagi shveller, 50x5 mm, 63x5 mm o‘lchamdagi ugolniklar orqali tayyorlanishi rejalashtirilgan.

Binolarni tom qismi yopish uchun 150x150x4 mm, 100x100x4 mm, 80x80x3 mm o‘lchamdagi metall quvurlar, 56x5 mm o‘lchamlardagi ugolniklardan ferma yasalishi orqali maxsus tomlar uchun mo‘ljallangan sendvich panellar yopilishi nazarda tutilgan.

Ob’ektning arxitektura yechimlari.

Binoni tashqi fasadlarni bezashda yuqori sifatli materiallardan foydalanilgan. Ichki va tashqi qoplamalar bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar tegishli loyiha chizmalarida berilgan. Tashqi va ichki bezatishda zamonaviy darajadagi sanitariya-gigienik, yong‘inga qarshi, texnik va estetik talablarga javob beradigan tabiiy va sun’iy ekologik toza materiallardan foydalanilgan. Binoning tashqi oynalariga issiqliq xisobidan kelib chiqib zamonaviy issiq va sovuqdan saqlovchi plastik romlar qo‘yilishi rejalashtirilgan. Tashqi eshiklarga zamonaviy issiq va sovuq o‘tkazmaydigan davotchikli temir eshiklar quyish rejalashtirishgan.

Loyixalanayotgan binoda kompressor xonasi va koridordan iborat.

3.3. Yong‘in xavfsizligi.

Yong‘inga qarshiligi – II toifa.

Funksional yong‘in xavf turi – F 5.1.

Konstruktiv yong‘in xavf turi – S 1.

Loyihada qo‘riqlash va yong‘in xavfini xabar berish tizimi o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan. Evakuatsiya holatida binodan chiqish yo‘laklari tizimi belgilangan. Binodagi mavjud yog‘ochdan yasalgan vositalar yong‘inga qarshi vositalar bilan ishlov berilishi va tok o‘tkazmaydigan barcha elektr jixozlarining tuproqlanishi va nolga teng bo‘lishi loyihada inobatga olingan. Binoning tashqi qismidan tomga ko‘tarilish uchun yong‘inga qarshi zinapoya quyilishi rejalashtirilgan.

3.4. Energiya samaradorligi.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- devorlar, qoplamalar va pollarda issiqlik izolyatsiyasi qo‘llanilgan, shuningdek deraza va eshiklarning konstruksiyalari issiqlik texnikasiga oid hisob-kitoblarga muvofiq ishlangan;

- binoni yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan;

- binoning tashqi va ichki qismlarida qisqa vaqtda yonib o‘chadigan qurilmalar (harakatni va yoriqlikni sezuvchi) yoritgichlardan foydalanilgan;

- kirish yo‘laklarida eshiklarni o‘zi yopuvchi mexanizmlar (davochik) va berk yopilishi ta’minlangan eshiklardan foydalanilgan;

- binoda yashil elektr energiyadan foydalanish uchun 4 kVt quvvatga ega quyosh panellari kuyilishi rejalashtirilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Bosh reja. Obodonlashtirish.

Loyixalashtirilayotgan ob’ekt Toshkent shahar, Yashnaobod tumani, Amir-Temur MFY, Temirchi ko‘chasi, 21-uyda joylashgan. Umumiy yer maydoni **113 641** m^2, qurilish maydoni **1190** m^2, qurilish xajmi **4802** m^3. Qurilish hududida obodonlashtirish ishlari qurilish ishlari yakunlangandan so‘ng ko‘kalamzorlashtirish, ichki yulaklarni qilish orqali amalga oshirilishi inobatga olingan.

Binolarning arxitektura va rejalashtirish yechimlari binolarning funksional maqsadi, xizmat ko‘rsatishning tashkil etilishi, sanitariya va yong‘in xavfsizligi standartlari hamda uchastkaning muhandislik -geologik sharoitlarini hisobga olgan holda tuzilgan. Loyihalanayotgan binolarda zinapoyaga nogironlar uchun maxsus panduslar qurilishi rejalashtirilgan.

4.2. Muhandislik tizimlari va inshootlari.

ELEKTR JIXOZLASh VA YoRITISh USKUNALARI.

Talab qilinadigan quvvat 10,87 kVt tashkil qiladi. Xisoblangan quvvat 9,9 kVt tashkil qiladi. Loyihada (umumiy, mahalliy, ta’mirlash) va favqulodda yoritish ko‘zda tutilgan. Bino ichki qismlarida qisqa vaqtda yonib o‘chadigan qurilmalar (harakatni va yorug‘likni sezuvchi) yoritgichlardan foydalanilgan. Umumiy ishchi yorug‘lik LED yoritgichlar bilan ta’minlangan. Yoritgichlar turini tanlash bino qismining maqsadi, atrof-muhit xususiyatlari va me’moriy dizayn talablariga muvofiq amalga oshirilgan. Bino ichini yoritish ishlari KMK 2.01.05-19 va KMK 2.01.18-2000 talablariga javob beradi.

SUV TA’MINOTI VA OQAVA SUVLAR.

Loyixalanayotgan binoning kunlik suv sarfi 2,16 m^3 tashkil qiladi. Binoning ichki qismlariga ichimlik suv yetkazib berish uchun Ø20-32 mm qalinlikdagi plastik quvurlar kuyilishi rejalashtirilgan.

Oqova suv tarmoqlari quvurlarini tashqi tarmoqlar quduqlariga qarab nishablikda loyihalangan. Oqova suv tarmoqlari □ 50÷110 mm polietilen quvurlaridan foydalanilgan. Binoning konstruksiyalari orqali o‘tadigan oqova suv quvurlarini plastmassa gilzalar bilan qoplash va ular orasini yonmaydigan materiallar bilan to‘ldirilishi rejalashtirilgan.

O‘rnatish ishlarini KMK 2.04.01-98 va KMK 2.04.02-19 talablariga muvofiq bajarish talab etiladi.

ISITISh, SOVUTISh VA ShAMOLLATISh TIZIMI.

Binolar qismining shamollatish tizimi uchun mehanik ishlash tipidagi tizim tanlangan. Tizim GOST 14918-80 talabidan kelib chiqib zanglamas listlardan tayyorlanishi rejalashtirilgan. Tizimdagi havoni aylanishini yahshilash maqsadida binoning tom qismiga va tizimning ichki qismiga ventilatorlar quyilishi rejalashtirilgan. Shamollatish tizimida bino ichkarisida yong‘in sodir bo‘lgan paytda avtomatik yopilib ochiladigan mehanizmlar qo‘yilishi nazarda tutilgan.

O‘rnatish ishlarini ShNK 2.01.02-04, KMK 2.04.05-97 va ShNK 2.08.02-09 talablariga muvofiq bajarish talab etiladi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 21.07.2025 yilda berilgan 200792249 –sonli xulosasi.

5.2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, davlat ekologik ekspertizasi markazi, Toshkent shahar filiali tomonidan 04.06.2025 yilda berilgan 01-02/01-4527 sonli Davlat ekologik ekspertizasining xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga koʻra qoʻshimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **9 162 587 415** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

7 917 161 so'mga kamaytirilib, **9 154 670 254** soʻmni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **8 173 812 727** so'm

QQS: **980 857 527** so'm

6.1. Ekspertizaga buyurmachi tomonidan quyidagi loyixa xujjatlari taqdim etildi: Ob’ekt bosh rejasi, ob’ektning arxitektura va qurilish yechimlari, yong‘in xavfsizligi qismlari, muxandislik tarmoqlari qismi, ob’ektning issiqlik xisobi, energetik pasporti, joriy narxlardagi qiymat xisobi.

6.2. Loyihani arxitektura qurilish yechimlari ekspertiza tomonidan koʻrib chiqildi va koʻrsatilgan kamchiliklar loyihachi tomonidan tuzatildi.

6.3. Yakuniy qiymat qurilish tugagandan soʻng, haqiqiy bajarilgan ishlar hajmlariga, nazorat-oʻlchov natijalariga asosan buyurtmachi va pudratchi tomonidan belgilanadi.

6.4. Buyurtmachiga tavsiya etiladi:

qurilish materiallari (maxsulotlar, qurilmalar) va jixozlarning narxlari mintaqaviy bozordan, shuningdek toʻgʻridan-toʻgʻri ishlab chiqaruvchilardan, qurilish materiallari birjalari va yarmarkalar byulletenlaridan, qurilish materiallari va jixozlarini yetkazib beruvchi tashkilotlar, kataloglar va boshqalardan aniqlansin.

6.5. Buyurtmachi, loyiha va pudrat tashkilotlari, foydalanuvchi bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 23 noyabrdagi 199 – son, 2023 yil 31 maydagi 81 – son, 2022 yil 09 sentabrdagi 220 – son farmonlari va 2023 yil 16 fevraldagi 57-son, 2020 yil 10 iyuldagi 4779-son qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martdagi 255 - son, 256 – son, 2020 yil 7 sentabrdagi 541 – son, 2022 yil 20 apreldagi 200-son qarorlari talablariga amal qilinsin.

6.6. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qaroriga muvofiq, 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan, «Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir».

7. Xulosalar.

7.1. “Mavjud ob’ektni yuridik xujjatga ega qismida yondosh xududdagi uy koʻrinish panaligini ta’minlash sharti bilan, oʻz xududida kompressor binosi qurish” ob’ektining loyiha-smeta xujjatlarini ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda koʻrib chiqib, kelishish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Yetakchi mutaxassis: O.A.Muratov

Mutaxassislar: K.Sattorov, Z.Raximov, N.Muratov, V.V.Zyuz’.